

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QO‘LDA
YOYLI PAYVANDLASH JIHOZLARI FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QO‘LDA YOYLI PAYVANDLASH JIHOZLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Qo‘lda yoyli payvandlash jihozlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

QO‘LDA YOYLI PAYVANDLASH JIHOZLARI

1. Eritib payvandlash usullari tasnifi va mohiyati;
2. Eritib payvandlashda fizika-metallurgik jarayonlar;
3. Payvandlashda deformatsiya va kuchlanishlar;
4. Payvandlash yoyining ta‘minlash ma‘nbalari;
5. Payvandlashda ishlatiladigan payvandlash materiallari;
6. Eritib kesish texnologiyasi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Eritib payvandlash usullari tasnifi va mohiyati	Payvandlashga asos solgan olimlar, eritib payvandlash mohiyati, yoyli datakli payvandlash, flyus ostida payvandlash, himoya gazlar muhitida payvandlash, elektr-shlak payvandlash, lazerli payvandlash, plazmali payvandlash, elektron-nurli payvandlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	17 ta
2	Eritib payvandlashda fizika-metallurgik jarayonlar	To'g'ri va teskari qutbli payvandlash	3 ta
3	Payvandlashda deformatsiya va kuchlanishlar	Deformatsiya, kuchlanish, mustahkamlik, qattqlik, plastiklik, zarbiy qovushqoqlik, yoyiluvchanliklarni farqlay olishi lozim	6 ta
4	Payvandlash yoyining ta'minlash ma'nbalari	Ta'minlash manbai, payvandlash transformatori, payvandlash to'g'irlagichi, payvandlash o'zgartirgichi va agregatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	5 ta
5	Payvandlashda ishlatiladigan payvandlash materiallari	Payvandlash simlari, elektrodlar, elektrod qoplamalarini tashkil etuvchi komponentlar, erimaydigan elektrodlar, payvandlash flyuslari, kukunli simlar, himoyalovchi gazlarni farqlay olishi kerak	13 ta
6	Eritib kesish texnologiyasi	Payvandlash po'stining jihozlanishi, eritib kesish mohiyati, eritib qoplash jarayonining usullari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %
----	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Tavsiya etilgan adabiyotlar (Qo‘lda yoyli payvandlash jihozlari fani)
2. M.A. Abralov, Z.D. Ermatov, N.S. Dunyashin. Qo‘lda yoyli payvandlash jihozlari. – Toshkent-2017.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.